

KURASHCHINING TEXNIK VA TAKTIK JISMONIY TAYYORGARLIGIDA PEDAGOGIK O‘RNI VA AHAMIYATI.

Isaqov Shuxratbek

Andijon davlat universiteti

Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasini o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada kurash sport turida sportchining texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligida pedagogning mahorati qo‘llyotgan professional usullari orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, kurash turlarini o‘rni, kurash mashg‘ulotlarida umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarni o‘rgatish, kurashning muayyan turi texnikasi va qoidalarini o‘rgatish sifatlarni rivojlantirish borasidagi fikrlar o‘rtaga tashlanadi.

Kalit so‘zlar: Kurash, sportchi, musobaqa, pedagog, tulum.

Abstract. The article analyzes the professional methods used by the pedagogue in the technical-tactical and physical training of the athlete in the sport of wrestling. Also, thoughts on the role of wrestling types, teaching of general developing and special exercises in wrestling training, teaching techniques and rules of a specific type of wrestling, and the development of qualities are brought to the fore.

Key words: Wrestling, athlete, competition, pedagogue, tulum.

Абстрактный. В статье анализируются профессиональные методы, используемые педагогом в технико-тактической и физической подготовке спортсмена в борьбе. Также на первый план выдвигаются мысли о роли видов борьбы, преподавании общеразвивающих и специальных упражнений в борцовской подготовке, обучении приемам и правилам конкретного вида борьбы, развитию качеств.

Ключевые слова: Борьба, спортсмен, соревнования, педагог, тulum.

Kurash – sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama yakkama olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o‘rin olib kelgan.

Adabiyotlarda berilishicha, o‘zbek milliy kurash turlaridan kurash va belbog‘li kurash qadimda dunyoga kelgan bo‘lib, bu ko‘p sonli tarixiy yodgorliklarda ma’lumotlar keltiriladi. Ma’lumki, kurashning oldingi nomi – buxoracha usuldagi kurash, belbog‘li kurashning esa – farg‘onacha usuldagi kurash deyilgan. Manbalarda aytilishicha, buxoracha usuldagi kurash 1998 yildan Farg‘onacha usuldagi kurash esa 2001 yildan boshlab belbog‘li kurash deb nomlangan. Quvonarlisi, yurtimizda birdaniga ikkita milliy kurash turi rivoj topdi. Ahamiyatlisi, dushmani asirga olish usullarini o‘z ichiga oladigan kurash usullarini tasvirlovchi qadimiy rasmlar hozirgi O‘zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalarda ham topilgan. Aytish joizki, musobaqalar oldidan uloqtirishlar, sakrashlar, kuchni namoyish qilishni o‘z ichiga oluvchi mashqlar o‘rganilgan. Ular raqiblarning o‘zaro bellashuvlari oldidan badan qizdirish vositasi bo‘lgan. Bu davrda kurashchilar bir-birining teridan ishlangan belbog‘idan yoki ustki kiyimining turli joyidan ushlab, kurashishgan. Raqibni erga tashlash usulini bajarishda oyoqlarning chalish usuliga katta e’tibor qaratilgan. Ma’lumot sifatida, kurashchilar bellashuvlari g‘alaba, oilaviy tantana yoki mavsumiy bayramlar munosabati bilan o‘tkaziladigan bayramlar bezagi bo‘lgani barchamizga ayon. Sport kurashining taktikasi - bu musobaqalarda eng yaxshi naliyaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq

holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarini egallash, sport kurashini to’g’ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarini shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan. Texnik va taktik tayyorgarlik jarayonini yangicha usul bilan xam rivojlantira olksak bo’ladi bu yani “tulum’ usuli. Mashg’ulotlarda jismoniy chiniqishni kuchaytirish maqsadida tulumlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda tulumlar turli og’irlikda va turli shaklda bo’lishi mumkin.

Xulosa Darhaqiqat, bunday chorlovlar sportchiga ruhiy oзуqa beradi. Ayniqsa, o'zga davlatda vatan so'zini eshitish barchani yanada olg'a harakatga undaydi. Ayniqsa, boksdan ham sportchi maydonga kelishi jarayonida o'sha millatda aytaylik, o'zbekcha qo'shiq sadolari ostida maydonga chiqib kelishiga e'tibor berganmiz. Bu ham yozilmagan ammo musobaqalarda doim qo'llanilgan natijador metodlardan biri hisoblanadi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonida murabbiyning sportchiga so'z orqali ta'sirni oshirishidan xabardormiz. Bundan tashqari, murabbiyning shogirdini musobaqa boshlanganda atrofni butunlay unutish, xayolni bir joyga yig'ib harakat qilishi ham g'olib bo'lish uchun eng samarali usullardan biridir. Bu holatlar faqat mashg'ulotlar jarayonida o'rgatiladi. Mashg'ulotlar sizga avval qilgan xatolaringizni to'g'rilab olishga imkon beradi. Ana shunday muammolar vaqtida yechilsagina yutishga bo'lgan ishonch yanada oshadi. Musobaqada g'olib bo'lish uchun mashg'ulotda ko'p ter to'kish lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Kurash turlari va o’qitish metodikasi”. O’quv qo’llanma Nurmatov B . Toshkent 2020y. 6-B
2. “Kurash turlari nazariyasi va usullari”, Darslik Tastanov Toshkent 2017-y 259-B
3. “Milliy kurash turlari va uni o’qitish metodikasi”. O’quv qo’llanma. Q.P. Arslonov. Toshkent 2014-y 107-B